# JIZZAX VILOYATI
# XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING
# QARORI

2022 - yil 8 - yanvar VI-37-2-3-44-K/22 Baxmal tumani hokimligi

**Baxmal tumanining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27, 99-moddalari hamda Jizzax viloyat moliya bosh boshqarmasining 2021 yil 30 dekabrdagi №01-20-08-01-39/75-sonli xatiga asosan 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjetini qabul qilish bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi

**QAROR QILADI**:

**1.** Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2022 yil 5 yanvardagi VI-31-5-3-0-K/22 sonli qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq, 2022 yilgi Baxmal tumani mahalliy byudjetiga viloyat mahalliy byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 69 408 994 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi, tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi o‘tkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda 81 088 840 ming so‘m va mahalliy byudjet xarajatlarining cheklangan miqdori esa 150 497 834 ming so‘m miqdorida belgilanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** 2022 yil uchun tumanning daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**3.** 2022 yilda:

a) Quyidagi soliq turlari to‘liq tuman mahalliy byudjetlarida qoldiriladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari

tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

- Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i.
- Tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq.
- davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

b) Viloyat byudjetiga quyidagilar to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va lisenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);
- Korxonalar aylanmasidan soliq.
- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;
- ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;
- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish yig‘imi va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizasiya yig‘imidan tashqari);
- Xususiylashtirishdan tushum
- Boshqalar

v) Qolgan soliq turlari viloyat va tumanlar o‘rtasida ajratma me’yoridan kelib chiqib taqsimot qilinadi.

**4.** Mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligini yanada oshirish uchun 2022 yilda ham qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkasidan kelib chiqib tuman va shaharlar kesimida Xalq deputatlari tuman Kengashi hududning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyent qo‘llash belgilash huquqi saqlab qolinadi.

**5.** Tuman byudjetiga umumdavlat va mahalliy soliqlardan ajratmalar me’yorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratma meyorlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda tuman G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

**6.** Qonun hujjatlariga muvofiq, moliya yili davomida tuman mahalliy byudjetini balanslashtirish jarayonida nazarda tutilmagan (hisobga olinmagan) soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlar kuzatilsa, ushbu tushumlar to‘lig‘icha tuman mahalliy byudjetiga o‘tkaziladi.

**7.** Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq tuman mahalliy byudjetining 2022 yil uchun daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmlari ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda respublika byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga o‘tkaziladigan tartibga soluvchi transfertlar miqdori tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

**8.** Tuman byudjetidan 2022 yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Qonunning 8-moddasiga muvofiq zaxira jamg‘armalari mahalliy byudjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2022 yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 419 791 ming so‘m miqdorida tasdiqlansin.

Tuman hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘larini tuman byudjet parametrlarida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

**9.** 2022 yil uchun tuman byudjetining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lari miqdori 5-ilovaga muvofiq belgilansin.

**10.** Tuman hokimligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga aholini faol jalb etish hamda joylardagi dolzarb muammolarni hal etishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida tashkil etilgan «Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi»ga mahalliy byudjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining 5 foiziga teng miqdorida 6-ilovaga muvofiq mablag‘ rejalashtirilishini ta’minlasin.

**11.** Tuman byudjetlarida shakllangan qo‘shimcha manbalar moliya yili davomida tegishlicha tuman Xalq deputatlari Kengashlari qarorlari asosida ishlatilishi belgilansin. Kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni moliyalashtirish

holatlari yuzaga kelganda tegishli hokimlarning qaror va farmoyishlariga asosida ishlatilib keyinchalik Xalq deputatlari Kengashlariga hisobot berib borilsin.

**12.** Tuman mahalliy byudjetining daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy hokimiyatlarning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, tuman hokimligi viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan takliflari bilan birga tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish bo‘yicha murojaat qiladi.

**13.** Tuman hokimligi tashabbusi bilan qo‘shimcha ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy byudjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manba mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

**14.** Tumanlar hokimligi tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin.

**15.** Byudjet ijrosining ochiqliligini ta’minlash maqsadida

Byudjet mablag‘i taqsimlovchilari;

har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o‘z tasarrufidagi byudjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, moliyaviy hisobotlarni, kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosini, o‘tkazilgan tanlov (tender) savdolari va davlat xaridlari hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtiradi.

Tuman davlat soliq va bojxona imtiyozlari ro‘yxatini, shuningdek taqdim etilgan soliq va bojxona imtiyozlarining miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq to‘lovchilari kesimida o‘z rasmiy veb-saytlariga har chorak yakunlariga ko‘ra, chorakdan keyingi oyning 25 sanasidan kechiktirmay joylashtiradi.

Tuman moliya bo‘limi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar kesimida tuman mahalliy byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar va ularni ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z rasmiy veb-saytlariga har chorak yakunlariga ko‘ra, chorakdan keyingi oyning 25 sanasidan kechiktirmay joylashtiradi.

**16.** Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Sharipov, tuman moliya bo‘limi (I.Kenjayev), tuman davlat soliq inspeksiyasi (X.Soatov)larga 2022 yildagi byudjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish

tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

**17.** Qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**18.** Mazkur qaror “Baxmal hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

**19.** Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin

**Туман ҳокими** **М.Анарбаев**

Халқ депутатлари Бахмал тумани
туман Кенгашининг
2022 йил 8 январдаги
VI-37-2-3-44-K/22-сон қарорига
1-илова

**Jizzax viloyati Baxmal tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari**

ming so‘mda

| T/R | Daromad turlari | Jami daromadlar (Kontengent) | Shu jumladan taqsimlanishi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Tuman byudjetiga | Viloyat byudjetiga |
| | **JAMI** | **91 791 840** | **81 088 840** | **10 703 000** |
| **I** | **Taqsimlanuvchi daromadlar** | **25 956 840** | **25 956 840** | **0** |
| | shu jumladan: | | | |
| 1 | Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo) | 9 824 070 | 9 824 070 | 0 |
| 2 | Mobil aloqaga aksiz solig‘i | 5 596 810 | 5 596 810 | 0 |
| 3 | Tamaki maxsulotlariga aksiz solig‘i | 10 535 960 | 10 535 960 | 0 |
| **II** | **Daromadlar jami** | **65 835 000** | **55 132 000** | **10 703 000** |
| 1 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (YATT) | 610 000 | 610 000 | 0 |
| 2 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 3 600 000 | 3 600 000 | 0 |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 7 241 000 | 7 241 000 | 0 |
| 4 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 378 000 | 378 000 | 0 |
| 5 | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | 65 000 | 65 000 | 0 |
| 6 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 35 150 000 | 35 150 000 | 0 |
| 7 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | 1 829 000 | 1 829 000 | 0 |
| 8 | Aksiz solig‘i, jami | 1 000 000 | 1 000 000 | 0 |
| | *shu jumladan:* | 0 | | |
| | *- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiyasidan soliq* | 1 000 000 | *1 000 000* | *0* |
| 9 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 1 682 000 | 1 682 000 | 0 |
| 10 | Yuridik shaxslar yer solig‘i | 2 172 000 | 2 172 000 | 0 |
| 11 | Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda | 1 405 000 | 1 405 000 | 0 |
| 12 | Korxonalar aylanmasidan soliq | 4 731 000 | 0 | 4 731 000 |
| 13 | Davlat boji | 2 595 000 | 0 | 2 595 000 |
| 14 | Yig‘imlar | 1 063 000 | | 1 063 000 |
| 15 | Jarimalar | 1 809 000 | 0 | 1 809 000 |
| 16 | Davlat unitar korxonalari sof foydasidan ajratmalar | 35 000 | 0 | 35 000 |
| 17 | Xususiylashtirishdan tushum | 300 000 | 0 | 300 000 |
| 18 | Boshqalar | 170 000 | 0 | 170 000 |

Халқ депутатлари Бахмал тумани туман
Кенгашининг
2022 йил 8 январдаги
VI-37-2-3-44-K/22-сон қарорига
2-илова

**2022 yil uchun umumdavlat va mahalliy soliq turlaridan Baxmal tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me'yori**

*Foiz hisobida*

| T/R | Shaxar va tumanlar nomi | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (YATT) | Jismoniy shaxslar yer solig'i | Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i | Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq | Ijara to'lovi | Aksiz solig'i: - benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizasiyasidan soliq | Yuridik shaxslar yer solig'i | Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | Korxonalar aylanmasidan soliq | Davlat boji | Yig'imlar | Jarimalar | Dalat unitar korxonalari sof foydasidan ajratmalar | Xususiylashtirishdan tushum | Boshqalar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Baxmal tumani | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |

Халқ депутатлари Бахмал тумани туман
Кенгашининг
2022 йил 8 январдаги
VI-37-2-3-44-K/22-сон қарорига
3-илова

**Baxmal tuman mahalliy byudjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi**

**ming so‘mda**

| **Hudud nomi** | **Maxalliy byudjet solik tushumlari** | **Utkazib beriluvchi daromadlar** | **Yukori byudjetdan ajratiluvchi tartibga soluvchi transfert miqdori** | **Xarajat** | **Farki** |
|---|---|---|---|---|---|
| Baxmal tumani | 55 132 000,0 | 25 956 840,0 | 69 408 994,0 | 150 497 834,0 | 0,0 |

Халқ депутатлари Бахмал тумани
туман Кенгашининг
2022 йил 8 январдаги
VI-37-2-3-44-K/22-сон қарорига
4-илова

**2022 yil uchun Baxmal tumani byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari**

ming.so‘m

| № | Ko‘rsatkichlar | 2022 yil |
|---|---|---|
| **Baxmal tuman bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami** | | **150 497 834,0** |
| 1 | Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi | 6 967 962,0 |
| 2 | Tuman xalq ta’limi bo‘limi | 8 341 375,0 |
| 3 | Tuman Tibbiyot birlashmasi | 44 860 784,0 |
| 4 | Tibbiy ijtimoiy xizmat | 40 986,0 |
| **5** | **Tuman Madaniyat bo‘limi** | 1 936 506,0 |
| | *shundan* | |
| | 6-son musika va san’at maktabi | 1 336 073,0 |
| 6 | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tashkilotlari | 843 070,0 |
| 7 | Tuman irrigasiya bo‘limi | 741 490,0 |
| 8 | Tuman fermer, dexkon, xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi | 1 135 396,0 |
| **9** | **Tuman obodonlashtirish boshqarmasi** | **11 392 954,0** |
| | *shundan* | |
| | Yo‘llarini saqlash va ekspluatasiya xarajatlari | 1 247 920,0 |
| 10 | Tuman Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi | 2 148 784,0 |
| 11 | Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi | 466 005,0 |
| 12 | Tuman Bandlikka ko‘maklashish markazi | 560 913,0 |
| 13 | Tuman hokimligi Moliya bo‘limi | 827 521,0 |
| 14 | Tuman maxalla va oilani qo‘llab quvvatlash bo‘limi | 3 997 722,0 |
| 15 | Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyati | 195 575,0 |
| **16** | **Prezident adminstrasiyasi hududiy tashkilotlari** | **555 177,0** |
| | *shundan* | |
| | Tuman Xalq qabulxonasi | 94 152,0 |
| | Axborot kutubxona markazi | 461 025,0 |
| 17 | **Tuman hokimligi jami** | **65 485 614,0** |
| | Shundan | |
| | Ijtimoiy nafaqalar | 50 856 911,0 |

Халқ депутатлари Бахмал тумани
туман Кенгашининг
2022 йил 8 январдаги
VI-37-2-3-44-K/22-сон қарорига
5-илова

## 2022 yil uchun Baxmal tuman mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

**ming so‘mda**

| T/r | Hudud nomi | Miqdor |
|---|---|---|
| 1 | Baxmal tumani | **518 000,0** |

Халқ депутатлари Бахмал тумани
туман Кенгашининг
2022 йил 8 январдаги
VI-37-2-3-44-K/22-сон қарорига
6-илова

**2022 yil uchun «Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi»ga ajratiladigan mablag‘ miqdori**

**ming so‘mda**

| **T/r** | **Hudud nomi** | **Miqdor** |
|---|---|---|
| 1 | Baxmal tumani | **7 098 954,0** |